

Fargʻona davlat universiteti,
adabiyotshunoslik kafedrası professori,
filologiya fanlari doktori Joʻrayev
Habibulla Abdusalomovich taqrizi ostida

Sharabiddinova Xavoxon
FarDU magistranti
sharabiddinova@gmail.com

“BOBURNOMA” DA MUALLIF OBRAZINING TUTGAN OʻRNI

Annotatsiya: Maqolada “Boburnoma”dagi muallif xarakteri, ichki olami, psixologik holatlari, ulaming mohiyatida sodir boʻladigan oʻzgarishlarni tavirlashda yozuvchining mahorati kabi masalalar gʻoliblik va magʻlublik kabi masalalar soʻnggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar va chop etilgan maqolalar asosida fikr yuritilgan. Mazkur jarayonda nafaqat “Boburnoma” balki bu asarga bagʻishlangan ilmiy qarashlar ham keltirilgan holda ularga munosabat bildirilgan.

Kalit soʻzlar: “Boburnoma”, Bobur, muallif dunyoqarashi, obraz, Hindiston, xarakter.

РОЛЬ ОБРАЗА АВТОРА В “БОБУРНОМЕ”

Аннотация: В статье рассматриваются такие вопросы, как авторский характер, внутренний мир, психологические состояния в “Бабурноме”, мастерство писателя в описании изменений, происходящих в сущности Улама. В ходе этого процесса была дана реакция не только на “Бабурноме”, но и на научные взгляды, посвященные этому произведению.

Ключевые слова: “Бабурнома”, Бабур, авторское мировоззрение, персонаж, образ, Индия, Моварауннахр, Хорасан.

THE ROLE OF THE IMAGE OF THE AUTHOR IN “BOBURNOME”

Annotation: The article focuses on issues such as the author's character in the “[Baburnome](#)”, his inner world, his psychological states, the writer's skill in resorting to changes that occur in the essence of the ulam, such as winning and losing, based on research conducted in recent years and published articles. In this process, they were reacted not only to the “[Baburnome](#)”, but also to the scientific views devoted to this work.

Key words: “Baburnome”, Babur, author's outlook, character, image, India, Movaraunnahr, Khurasan.

Har qanday ijodiy voqelik obrazlar vositasida koʻrinadi. Dunyoni obrazlar asosida tasavvur etish inson tafakkuri bilan kamol topuvchi hodisadir. Sanʼatkor obrazlar asosida oʻzi aytmoqchi boʻlgan qarashlarini boshqalarga ham badiiy jihatdan anglatadi. Deyarli sanʼatning barcha sohalarida, badiiy adabiyotda ham voqelikni aks ettirish obraz vositasida amalga oshadi. Obraz atamasi nafaqat badiiy adabiyot, balki sanʼatning barcha sohalarida inson tafakkuri asosida yaratilgan, hayotning qayta ishlangan chizgisidir. Jahon adabiyoti, jumladan, oʻzbek adabiyotining ham tarixiy tajribasidan bilish mumkinki, badiiy obrazning umumlashma va betakror yagonalikda paydo boʻlishi va yaratilishi turli tarixiy davrlarda, adabiy maktablarda va ijodiy metodlarda, adabiy yoʻnalish va oqimlarda oʻziga xos tarzda shakllanish bosqichini bosib oʻtgan. Insoniyatning dastlabki tafakkur bosqichlarini rivojlanishida voqelikni ongli tarzda, estetik prinsiplar asosida obrazli aks ettirmagan. Ilk yaratilgan miflar tarkibidagi obrazlar tizimida ham voqelikning inson ongi tomonidan anglab yetilmagan tasviriarini koʻrishimiz mumkin. Dunyoning hoʻkiz shoxi yoki toshbaqaning ustida turishi, momaqaldiroq yoki chaqmoq chalishini osmon

xudolarining qahrlari bilan mengzashda, olov xudosi, suv xudosi kabi g'ayritabiiy shakl va shamoyilga ega turli obrazlar tizimida ilk ibtidoiy mifologik tafakkurga xos obraz yaratish mahsullami ko'rishimiz mumkin. Davrlar o'tishi bilan inson tafakkurining taraqqiy etib yuksalishi sabab voqelikni ongli tarzda tasvirlash yuzaga keldi. Inson o'zi yashab turgan atrof-muhit va voqeliklar, qabila va xalqlar odamlar o'rtasidagi munosabatlar tasvirida ruhiy ta'sir etish ko'lami yuqori planga chiqdi. Shu tariqa insonlar orzu va istaklari, kulfat va quvonchlari, sevgi va nafratlarini ifodalovchi obrazlar yaratila boshladi. Obrazlar tizimi har davring talab va istaklariga mos tarzda yangilanib qayta ishlanib boraveradi. Badiiy obraz tabiatidagi, keyingi davrlarda voqelikning inson ruhiyatining eng nozik nuqtalarining yetakchi xususiyatlarini, asarda yaratilayotgan ijodkorning estetik idealini butun murakkabligi bilan aks ettirishga qaratilgani sabab yuksak ahamiyat kasb etdi. Obraz masalalari yoritilgan dastlabki ilmiy ta'riflarni Arastuning "Poetika", Platon, Abu nasr Farobiyning "She'r san'ati" kabi asarlarda uchratishimiz mumkin. Arastuning "Poetika" asarida obraz "Mimesis" shaklida uchraydi. "Mimesis" atamasini rus olimi V.Appelrod, fransuz olimi Gatrsefeld kabi bir qator olimlar jo'ngina qilib "taqlid" deb olgan. N.I.Novosadskiy esa taqlid deb tarjima qiladi, lekin izoh sifatida voqelikni bu faqat taqlidgina emas, balki voqelikni ijodiy qayta gavdalanitirishdir degan qarashlarini ilgari suradi. Platonda esa meteksis - borliq raqamlarda qatnashadi deydi. Farobiyning "She'r san'ati kitobida" taqlid-aslidan uzoq bo'lgandagina mukammal va afzal bo'ladi degan qarashlar mavjud. "Obraz" atama sifatida birinchi marotaba nemis faylasufi Gegelninig san'at haqidagi estetik qarashlarida uchraydi. Gegel san'at haqida fikr yuritarkan, san'at obrazlar orqali fikrlash demakdir deb ta'kidlagan.

Biz tahlil uchun yuzlanayotgan asar "Boburnoma" dagi muallif obrazini ham yuqoridagi omillarga ko'ra tahlil etamiz.

Madaniyat va ma'naviyat tariximizda XV asr XVI asrning birinchi yarmi o'lmas asarlarga g'oyat boyligi, bu davrda xalqimiz insoniyatga ko'pgina ilm va adabiyot daholarini yetkazib bergani bilan alohida e'tiborga loyiq. Xususan, Xuroson va Movarounnahrda yuzlab shoir-u adib, muarrix va bastakor, san'at ahli barakali ijod qildi. Forsiy va turkiy tillarda yaratilgan durdona asarlardan ham forsiyzabon, ham turkiyzabon kitobxonlar birdek ma'naviy oziq oldilar. Har ikki tilda yaratilgan badiiy, tarixiy asarlar mazmunan bir-birini boyitdi. "Boburnoma" asari esa yuqoridagi davr uchun juda katta adabiy-tarixiy va ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Qadimiy Movarounnahr va undagi xalqlar hayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida "Boburnoma" alohida ajralib turadi. Ajoyib lirik shoir, o'zbek adibi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asar ijtimoiy-tarixiy, ilmiy-tabiiy va adabiy-lingvistik ma'lumotlar xazinasidir. Unda 1494-yildan 1530-yilgacha O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda kechgan voqealar bayon etilgan. Bobur tarixiy faktlarni shunchaki qayd etish, jang-u jadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilangina kifoyalanmay, voqealarni jonli tilda qiziqarli hikoya qilad, manzara chizadi, tabiatni, etnografik xolatlarni tasvirlaydi, davrni, uning xususiyatlarini gavdalanitiradi. Ko'p hollarda voqelikka hukumdor sifatida emas, oddiy inson, ayrim o'rinlarda tajjublangan sayyoh sifatida munosabat bildiradi. Muallif bunday jarayonlarda o'zidagi ruhiy o'zgarishlarni yashirib o'tirmaydi, o'zini hayratga solgan, o'ylantirgan, fikrlashga undagan voqeahodisalarni "yosh bolalarga xos samimiyat" bilan nayon etadi. Shu sababdan asar faqat ilmiy-tarixiy ahamiyati bilan emas, balki o'zbek badiiy nasrining yorqin namunalaridan biri sifatida biz uchun qimmatlidir. Shoir o'z xotiralarini badiiy uslubda sodda va ravon bayon etadi. O'nlab tarixiy shaxslarning aniq xarakterini yaratadi. Tabiat manzaralarining suratini chizadi, kitobni har xil syujetlar, ishqiy sarguzashtlar, she'riy parchalar bilan bezaydi. Tilga olingan shaxslarning portreti kiyinishini, tashqi ko'rinishini, fe'l-atvorini, odatlari, o'tmishi, avlod-ajdodi, birma-bir ta'rif etiladi. Mazkur obrazlarni tasvirlar ekan ularning mansabida, kasb-koridan kelib chiqqan holda ruhiy olamini ham yaqqol tasvirlab o'tadi. Bu jarayonda ko'pincha o'zi bilan muloqotda bo'lgan shaxsslarning ichki olamini ham batafsil ta'riflab bersa, ayrim o'rinlarda eshitgan

odamlari haqida uchinchi shaxs tilidan gapirishi muallifning netral pozitsiyada turganligini namoyon etadi.

Asardagi markaziy obraz Boburning o‘zi, albatta. Uning his -tuyg‘ulariga boy qalbi ko‘z oldimizda yorqin jonlanadi. Ingliz tarixchisi Elfiniston “Boburnoma” va uning muallifi haqida: “Uning shaxsiy his – tuyg‘ulari har qanday mubolag‘adan yoki pardalashdan xoli, uslubi oddiy na mardona, shu bilan birga jonli va ifodali. O‘z zamondoshlari biografiyasini, ularning qiyofalari, urf-odati, intilishlari, qiziqish va qiliqlarini ko‘zguda aks etgandek ravshan tasvirlaydi. Bu jihatdan “Boburnoma” O‘rta O‘siyodagi yagona chinakam tarixiy tasvir namunasidir”, - deb yozadi

U podshoh sifatida lashkar tortib shohlarga xos mag‘lubiyatlarning achchiq alamlari-yu zafarlarning ulug‘vor nashidalar surishni ko‘p marotaba o‘z boshidan kechirdi. Bobokaloni singari Maovaraunnahr taxtini egallashni orzu qildi. U yerda Shayboniyxondan yengilib, Qobulga keldi va keyin Hindistondan bepayon yirik mamlakat hukmdoriga aylandi. Asarda berilgan voqealar, urushlardagi g‘alaba va mag‘lubiyat alamlari muallif ichki kechinmalarining to‘laqonli ochilishiga turtki beradi. Hindistonning donishmand farzandi, buyuk davlat arbobi Javoharlar Neru o‘zining “Hindistonning ochilishi” va “Jahon tarixiga bir nazar” asarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida samimiyatga to‘lib ushbu fikrlarni izhor etgan: “Bobur – dilbar shaxs. Uyg‘onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir. U mard va tadbirkor odam bo‘lgan. Bobur o‘ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mansabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi... Bobur san‘at va ayniqsa, adabiyotni sevardi”. Bobur haqidagi bu kabi e‘tiroflarning berilishi ham asarda muallif o‘zini boricha namoyon qilganligi, qalbidagi alam-iztiroblarni yashirmay ko‘rsatib berganligida deb bilish mumkin. Muallif bu asarga badiiy tus berib qolmay, balki uni adabiy-tarixiy manba sifatida shakllantiradi.

“Boburnoma” tarixiy-adabiy manba sifatida yana shunisi bilan e‘tiborliki, asarda ko‘plab tarixiy shaxslar, adabiyot va san‘at ahllari, din peshvolari, shoh va shahzodalar, beklar, amir-u umarolar haqida ma‘lumotlar uchraydi. “Boburnoma” da bir necha yuz tarixiy shaxslar, ularning faoliyati va sarguzashtlari tasvir etiladi. Bular shohlar, viloyat hokimlari, amir-amaldorlar, askar boshliqlar, din namoyondalari, askarlar, ilm-fan, san‘at va adabiyot ahillari, dehqonlar, hunarmandlar, qullar va boshqa ijtimoiy guruhdagi lavozim va kasbkordagi kishilardir.

Bobur bularning tasvirlanayotgan voqealardagi roliga qarab birlari haqida keng va batafsil so‘zlaydi, ikkinchi birlari haqida qisqa ma‘lumot beradi, boshqa birlarini biron munosabat bilan tilga oladi yoki eslab o‘tadi. U voqealarning rivojida muhimroq o‘rin tutgan Umarshayx Mirzo , Husayn Bayqoro, Sulton Ahmad Mirzo, Xisravshoh kabi tarixiy shaxslarning faoliyati va sarguzashtlarini bayon etish bilan birga, ularning shakl-shamoili, nasl-nasabi, ma‘naviy qiyofasi, hislati, xulq-atvori, kishilarga munosabati, madaniy saviyasi va boshqa jihatlarni ham tasvirlaydi. “Boburnoma” da ilm-fan, san‘at va adabiyot ahillariga katta o‘rin berilgan. Bobur Navoiy, Jomiy, Binoiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Mir Xusayn, Muammoniy, Shayxim Suhayli, Yusuf Badeyniy, Ahmad Xojibek, Behzod , Sulton Ali, Hoji Abdulla Marvoriy, Shoh Muzaffar, G‘ulom Shodiy, Husayn Uddiy kabi bir qator shoirlar va san‘atkorlar haqida ma‘lumot beradi, ularni maqtaydi, asarlaridan namunalar keltiradi, ba‘zan hayoti, faoliyati yoki shaxsiy sifatleri haqida qiziqarli fikrlar so‘zlaydi. “Boburnoma” bu kishilarning hayoti va faoliyatini o‘rganishda ularning madaniy hayotidagi o‘rnini belgilashda juda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. Тошкент. Шарқ. 2002. – 335 б.

2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. Тошкент.: Шарқ. 2014. -7 4 4 б.
3. Низомиддинов Н.Ғ. Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). Монография. Тошкент: Fan va texnologiya, 2012 йил. – 516 б.
4. Suloymonov 1.1. The issue of historicity and artistic interpretation. Journal of Pharmaceutical Negative Results. 13. pp. 2750-2756 б.
5. Қаюмов А. Асарлар. 10 жилдлик. 5-жилд. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодиёти. Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2009. - 303 б.